



# IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (3)**



**2026**

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
3-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov** vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayev** vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayev** vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev** vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyev** vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev** vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyev** vich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilkomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
<b>Muxiddin Kalonov</b>	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
<b>Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li</b>	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
<b>Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich</b>	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
<b>Bobonarova Kamola</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
<b>Azizova Habiba Arslonovna</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
<b>Yusupova Dilbar Mirabidovna</b>	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPNOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZELENOY EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
<b>Abdullaeva Zaynab Ruslanovna</b>	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
<b>Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li</b>	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
<b>Ravshanjon Azimovich</b>	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
<b>Davidxodjayev Oybek Obidovich</b>	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
<b>Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.</b>	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
<b>Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi</b>	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
<b>Erkin Temirovich Shodiev</b>	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
<b>Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich</b>	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
<b>Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li</b>	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЙ О’СИШГА ТА’СИРИ .....	118
<b>Rustamov Sheroz Oblokulovich</b>	
ISHLAB CHIQRARISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELII ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL .....	123
<b>Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich</b>	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH .....	129
<b>Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva</b>	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
<b>Шафикова Луиза, Ойбек Камилов</b>	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА .....	150
<b>Омонтурдиева Диёра</b>	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
<b>Matkarimov Mansur</b>	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEKANIZMINING DASTAKLARI .....	161
<b>Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi</b>	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	167
<b>Дониерова Фотимабону Алишер кизи</b>	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI VAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH .....	173
<b>Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li</b>	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
<b>Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich</b>	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
<b>Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li</b>	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW .....	192
<b>Ashurova Sitora Xusnitdin qizi</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ .....	197
<b>Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов</b>	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
<b>Qilichov Muhriddin Husniddin o’g’li</b>	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
<b>Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi</b>	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
<b>Rajabova Malika Nuriddin qizi</b>	
NATIJAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR .....	230
<b>Qosimova Gulyar Axmatovna</b>	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ .....	239
<b>Усманова Зумрад Исламовна</b>	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI .....	242
<b>Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna</b>	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
<b>Xannarov Komiljon Karimovich</b>	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
<b>Saidov Suhrob Shodmonovich</b>	
HUDUDIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
<b>Akbarova Kamola Akmaljonovna</b>	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI .....	263
<b>Karimov Eminjon Gopardjonovich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI .....	270
<b>Shermatov Axror Abdixakimovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	275
<b>Ergash Bobobekov</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	281
<b>Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	285
<b>Qurbonova Rahima Jamshedovna</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
<b>Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
<b>Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li</b>	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....	302
<b>Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	306
<b>Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna</b>	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	312
<b>Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li</b>	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI.....	316
<b>Yusufova Laylo G'ayrat qizi</b>	



AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
<b>Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li</b>	
СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА.....	329
<b>Норкулов Суннатбек Алишерович</b>	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
<b>Kurbanov Baxodir Negmatullayevich</b>	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QULAY BIZNES MUHITINING TA'SIRI.....	341
<b>Vahidova Gulhayyo Arzi qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BANK KREDITLARI BILAN TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	347
<b>Raxmanova Ilmira Rustamovna</b>	
SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MAQSADLI MARKETINGDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	354
<b>Toxirov Javlon Raximovich</b>	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TARKIBIY QISMLARI BO'YICHA BAHOLASHNING MUHIM OMILLARI.....	361
<b>Arslonov U. U.</b>	
RESURSLAR TA'MINOTI TIZIMINING TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	367
<b>Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi</b>	



# RESURSLAR TA'MINOTI TIZIMINING TASHKILY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI

**Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi**

Sharof rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Email: [barchin967@gmail.com](mailto:barchin967@gmail.com)

Orcid: <https://orcid.org/0009-0003-0723-8879>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada resurslar ta'minoti tizimining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Unda resurslar ta'minoti tizimining iqtisodiy mazmuni, tarkibiy elementlari, boshqaruv mexanizmlari hamda iqtisodiy samaradorlikka ta'siri yoritilgan. Shuningdek, moddiy, mehnat, moliyaviy, intellektual va raqamli resurslarning ta'minot jarayonidagi o'rni tahlil qilinib, resurslardan oqilona foydalanish, taqsimlash va boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida resurslar ta'minoti tizimini takomillashtirish iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili ekanligi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** resurslar ta'minoti, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, resurs salohiyati, moddiy resurslar, mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, intellektual resurslar, raqamli resurslar, logistika, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik.

**Abstract.** This article scientifically studies the organizational and economic features of the resource supply system. It covers the economic content, structural elements, management mechanisms and impact of the resource supply system on economic efficiency. It also analyzes the role of material, labor, financial, intellectual and digital resources in the supply process, and substantiates the organizational and economic directions of rational use, distribution and management of resources. As a result of the study, it was determined that improving the resource supply system is an important factor in increasing economic stability and competitiveness.

**Key words:** resource supply, organizational and economic mechanism, resource potential, material resources, labor resources, financial resources, intellectual resources, digital resources, logistics, effective use of resources, economic efficiency, competitiveness.

**Аннотация.** В данной статье научно исследуются организационно-экономические особенности системы ресурсного обеспечения. Рассматриваются экономическое содержание, структурные элементы, механизмы управления и влияние системы ресурсного обеспечения на экономическую эффективность. Также анализируется роль материальных, трудовых, финансовых, интеллектуальных и цифровых ресурсов в процессе снабжения и обосновываются организационно-экономические направления рационального использования, распределения и управления ресурсами. В результате исследования установлено, что совершенствование системы ресурсного обеспечения является важным фактором повышения экономической стабильности и конкурентоспособности.

**Ключевые слова:** ресурсное обеспечение, организационно-экономический механизм, ресурсный потенциал, материальные ресурсы, трудовые ресурсы, финансовые ресурсы, интеллектуальные ресурсы, цифровые ресурсы, логистика, эффективное использование ресурсов, экономическая эффективность, конкурентоспособность.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida resurslar ta'minoti tizimi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining uzluksizligini tashkil etish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Har qanday iqtisodiy faoliyat turi moddiy, mehnat, moliyaviy, intellektual va axborot resurslari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'lib, resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, logistika tizimlarining murakkablashuvi, resurslar cheklanganligi hamda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi resurslar ta'minoti tizimini boshqarishning yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish va xizmat



ko'rsatish sohalarida resurs oqimlarini samarali boshqarish, ta'minot zanjiri uzluksizligini ta'minlash va xarajatlarni optimallashtirish iqtisodiy samaradorlikning muhim shartiga aylanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, resurslar ta'minoti tizimining samarali tashkil etilishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, ishlab chiqarish tannaxini kamaytirish, innovatsion faoliyatni kengaytirish hamda bozor subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Shu sababli resurslarni boshqarish, taqsimlash va ulardan samarali foydalanish masalalari iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda ham iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, logistika infratuzilmasini kengaytirish hamda resurslardan samarali foydalanish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish, investitsion faollikni oshirish, transport-logistika tizimini rivojlantirish va ishlab chiqarishda resurs tejankor texnologiyalardan foydalanish resurslar ta'minoti tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tarmoqlar rivojlanishining hozirgi bosqichida resurs tejankorligini kuchaytirish, logistika va raqamli boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish obod va strategik ahamiyat kasb etadi. Moddiy, moliyaviy hamda intellektual resurslar integratsiyasini chuqurlashtirish hisobiga xarajatlarni kamaytirish va innovatsion salohiyatni oshirish tizim samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Resurslar ta'minoti tizimining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari iqtisodiy adabiyotlarda resurslardan samarali foydalanish, ta'minot zanjiri, logistika, ishlab chiqarish omillari, inson kapitali va innovatsion boshqaruv nazariyalari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Ilmiy qarashlarda resurslar iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning boshlang'ich asosi, ta'minot tizimi esa ushbu resurslarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlariga uzluksiz yetkazib beruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sifatida talqin qilinadi.

Xalqaro va mahalliy olimlarning resurslar ta'minoti hamda ulardan foydalanish samaradorligi borasidagi yondashuvlarini quyidagi fundamental yo'nalishlarga ajratish mumkin:

Klassik va neoklassik iqtisodiy yondashuv: A. Marshall iqtisodiy resurslarni ishlab chiqarish jarayonining asosiy omillari bilan bog'lab, yer, kapital, mehnat va tadbirkorlik qobiliyatining iqtisodiy natijaga ta'sirini asoslab bergan. Uning qarashlarida resurslar samaradorligi ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar darajasi va bozor muvozanati bilan uzviy bog'liq holda izohlanadi.

Cheklanganlik va resurslarni taqsimlash muammosi: P. Samuelson va V. Nordhaus tadqiqotlarida resurslar cheklanganligi iqtisodiyotning asosiy muammolaridan biri sifatida qaraladi. Mualliflar iqtisodiy tizimning samaradorligi mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish mexanizmlariga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv resurslar ta'minoti tizimini faqat texnik jarayon emas, balki iqtisodiy tanlov, taqsimot va samaradorlik masalasi sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Strategik boshqaruv va raqobatbardoshlik nazariyalari: M. Porter resurslar va raqobatbardoshlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, subyektlarning ustunligi mavjud resurslardan foydalanish sifati, qiymat zanjiri va raqobat muhitiga bog'liqligini asoslaydi. J. Barney tomonidan ilgari surilgan resursga asoslangan yondashuvda (RBV) esa uzoq muddatli raqobat ustunligi noyob, qimmatli va takrorlanishi qiyin bo'lgan resurslarga, shuningdek, intellektual kapital, boshqaruv kompetensiyalari hamda innovatsion salohiyatga bog'liqligi ko'rsatiladi.

Logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi (SCM): M. Christopher logistika va ta'minot zanjirida resurslar harakati, yetkazib berish tezligi va xarajatlar optimallashtirishini bir butun tizim sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, zamonaviy iqtisodiyotda raqobat alohida korxonalar o'rtasida emas, balki ta'minot zanjirlari o'rtasida kechadi. R. Ballou esa logistika boshqaruvida moddiy oqimlar, omborlash, transport va axborot almashinuvini samarali tashkil etish resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishini, vaqtni tejash va uzluksizliqni ta'minlashini ta'kidlaydi.

Inson kapitali nazariyasi: G. Becker inson kapitali nazariyasida mehnat resurslarining sifati iqtisodiy samaradorlikning bosh omili ekanligini asoslagan. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish va innovatsion iqtisodiyot sharoitida malakali kadrlar, bilim va kasbiy kompetensiyalar ta'minoti moddiy resurslar bilan bir qatorda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari: Q.X. Abdurahmonov, N.U. Arabov, M.Q. Pardayev, M.M. Muxammedov va I.S. Tuxliyevlarning ishlarida mehnat resurslari, xizmat ko'rsatish sohasi, hududiy rivojlanish va resurslardan samarali foydalanish masalalari keng yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlarida resurslar ta'minoti iqtisodiy o'sish, bandlik, xizmatlar sifati va hududiy raqobatbardoshlik bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, resurslar ta'minoti tizimi ko'p tarkibli va murakkab iqtisodiy kategoriya bo'lib, u moddiy, moliyaviy, mehnat, intellektual, innovatsion va raqamli resurslarning o'zaro uyg'unlashgan harakatiga asoslanadi. Shu bois mazkur maqolada resurslar ta'minoti tizimi tashkiliy boshqaruv, iqtisodiy samaradorlik, logistika, inson kapitali va raqamli transformatsiya omillari bilan bog'liq holda kompleks tadqiq etiladi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda resurslar ta'minoti tizimining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlarini o'rganish va uning tarkibiy elementlarini baholash maqsadida tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot obyekti murakkab tizim sifatida qaralib, uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri ma'lum tartibda guruhlangan usullar yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil, iqtisodiy baholash hamda ilmiy abstraksiya usullari qo'llanildi.

Iqtisodiy-statistik va dinamik tahlil usullari resurslar ta'minoti tizimining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda vaqtlar kesimida o'zgarishini baholash imkonini berdi. Qiyosiy va iqtisodiy baholash usullaridan tarmoqlar va hududiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini o'lchashda foydalanildi. Ilmiy abstraksiya usuli esa resurslar ta'minoti tizimining umumiy qonuniyatlarini shakllantirish, ikkinchi darajali omillardan chetlashgan holda asosiy iqtisodiy bog'liqliklarni ajratib ko'rsatishga xizmat qildi.

Resurslar ta'minoti tizimining rivojlanish tendensiyalarini baholashda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, iqtisodiy tarmoqlar va hududiy ko'rsatkichlarga oid rasmiy statistik ma'lumotlar axborot bazasi bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot jarayoni ikki asosiy yo'nalishda kompleks tarzda amalga oshirildi:

1. Resurslar tarkibining tahlili: Moddiy, mehnat, moliyaviy, intellektual va raqamli resurslarning iqtisodiy faoliyatdagi o'rni hamda ularning pirovod samaradorlikka ta'siri baholandi.

2. Tashkiliy mexanizmlarni baholash: Logistika, ta'minot zanjiri boshqaruvi, raqamli boshqaruv va innovatsion yondashuvlarning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi roli o'rganildi.

Ushbu tahlillar natijasini umumlashtirish asosida, yakunda resurslardan samarali foydalanish va resurslar ta'minoti tizimini takomillashtirishga qaratilgan tegishli ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Resurslar ta'minoti tizimi iqtisodiy faoliyatning uzluksizligini ta'minlovchi asosiy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Mazkur tizim moddiy, mehnat, moliyaviy, intellektual, innovatsion va raqamli resurslarning o'zaro bog'liq holda shakllanishi, taqsimlanishi va samarali foydalanilishini qamrab oladi.

1-jadval. Resurslar ta'minoti tizimining tarkibiy elementlari va ularning iqtisodiy vazifalari

No	Resurs turi	Iqtisodiy mazmuni	Tashkiliy vazifasi	Iqtisodiy natija
1	Moddiy resurslar	Xomashyo, uskunalar, texnika va ishlab chiqarish vositalari	Ishlab chiqarish va xizmat jarayonini ta'minlash	Mahsulot va xizmat hajmi oshadi
2	Mehnat resurslari	Ishchi kuchi, malaka va kasbiy kompetensiyalar	Kadrlar bilan ta'minlash va mehnat taqsimoti	Mehnat unumdorligi ortadi
3	Moliyaviy resurslar	Investitsiyalar, kreditlar va aylanma mablag'lar	Moliyalashtirish va kapital aylanishini ta'minlash	Investitsion faollik kuchayadi
4	Intellektual resurslar	Bilim, tajriba, ilmiy ishlanmalar	Innovatsion g'oyalarni shakllantirish	Raqobatbardoshlik oshadi
5	Raqamli resurslar	Axborot tizimlari, platformalar va ma'lumotlar bazasi	Raqamli boshqaruvni ta'minlash	Boshqaruv tezkorligi oshadi
6	Logistika resurslari	Transport, omborxonalar va taqsimot tizimlari	Resurs oqimlarini muvofiqlashtirish	Xarajatlar kamayadi

1-jadvalda resurslar ta'minoti tizimining asosiy tarkibiy elementlari hamda ularning iqtisodiy vazifalari tizimli ravishda yoritilgan. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, resurslar ta'minoti tizimi iqtisodiy faoliyatning uzluksizligini ta'minlovchi ko'p tarkibli va murakkab mexanizm hisoblanadi. Mazkur tizimda moddiy, mehnat, moliyaviy, intellektual, raqamli va logistika resurslari o'zaro uzviy bog'liq holda faoliyat yuritadi.

Tahlillarga ko'ra, moddiy resurslar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining moddiy-texnik bazasini shakllantiradi. Xomashyo, uskunalar va texnik vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi mahsulot hajmi va xizmat sifati o'sishining muhim omili hisoblanadi. Shu sababli moddiy resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy shartlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Mehnat resurslari esa resurslar ta'minoti tizimining inson kapitaliga asoslangan tarkibiy elementi bo'lib, iqtisodiy faoliyat natijadorligini belgilaydi. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida xodimlarning kasbiy malakasi, bilim darajasi va innovatsion kompetensiyalari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa inson kapitalini rivojlantirish hamda mehnat resurslarining sifat ko'rsatkichlarini oshirish zaruratini kuchaytiradi.



Moliyaviy resurslar iqtisodiy tizimning investitsion va operatsion faoliyatini moliyalashtiruvchi muhim omil hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiya va kredit resurslarining yetarli darajada shakllanishi iqtisodiy subyektlarning modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida investitsion faollikning ortishi resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Intellectual resurslar va raqamli resurslarning ahamiyati esa zamonaviy iqtisodiyotda yanada ortib bormoqda. Ilmiy ishlanmalar, innovatsion g'oyalar, axborot texnologiyalari va raqamli platformalar resurslar ta'minoti tizimini avtomatlashtirish, boshqaruv tezkorligini oshirish hamda iqtisodiy xavflarni kamaytirish imkonini beradi. Shu sababli iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish resurslar ta'minoti tizimining samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jadvalda logistika resurslari ham alohida tarkibiy element sifatida ko'rsatilib, transport, omborxonalar va taqsimot tizimlarining resurs oqimlarini muvofiqlashtirishdagi roli yoritilgan. Tahlillar logistika tizimi samaradorligi resurslar harakati tezligi, xarajatlar darajasi va ta'minot zanjiri uzluksizligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatmoqda.

2-jadval. Resurslar ta'minoti tizimining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari

№	Xususiyatlar	Mazmuni	Amaliy ko'rinishi	Kutilayotgan natija
1	Integratsiyalashganlik	Resurs turlarining yagona tizimda boshqarilishi	Moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarining uyg'unligi	Resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi
2	Uzluksizlik	Resurs oqimlarining doimiy ta'minlanishi	Ta'minot zanjiri va logistika tizimi	Ishlab chiqarishdagi uzilishlar kamayadi
3	Moslashuvchanlik	Bozor talablariga tez moslashish	Zaxira, alternativ yetkazib beruvchi va raqamli monitoring	Risklar kamayadi
4	Tejamkorlik	Resurslardan oqilona va kam xarajat bilan foydalanish	Xarajatlarni optimallashtirish	Tannarx kamayadi
5	Innovatsionlik	Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish	Raqamli platformalar, avtomatlashtirish	Boshqaruv sifati oshadi
6	Nazorat va monitoring	Resurs harakatini muntazam kuzatish	KPI, raqamli hisob va tahlil tizimi	Shaffoflik va aniqlik ta'minlanadi

2-jadvalda resurslar ta'minoti tizimining asosiy tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri yoritilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, resurslar ta'minoti tizimining samarali faoliyati, avvalo, uning integratsiyalashgan, uzluksiz, moslashuvchan va innovatsion boshqaruv tamoyillariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, integratsiyalashganlik resurslar ta'minoti tizimining eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tamoyil moddiy, moliyaviy, mehnat va axborot resurslarini yagona boshqaruv tizimida uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu esa resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilishga xizmat qiladi.

Uzluksizlik xususiyati resurs oqimlarining doimiy va barqaror harakatini ta'minlash bilan bog'liqdir. Tahlillar ko'rsatishicha, ta'minot zanjiridagi uzilishlar ishlab chiqarish hajmining kamayishi, xizmat ko'rsatish sifatining pasayishi hamda iqtisodiy yo'qotishlarning ortishiga olib keladi. Shu sababli logistika va ta'minot tizimini samarali tashkil etish iqtisodiy faoliyatning uzluksizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Moslashuvchanlik tamoyili resurslar ta'minoti tizimining bozor kon'yunkturasi, talab va taklif o'zgarishlariga tez moslasha olish qobiliyatini ifodalaydi. Ayniqsa, global iqtisodiy beqarorlik sharoitida alternativ resurs manbalari, raqamli monitoring tizimlari va zaxira mexanizmlarining mavjudligi iqtisodiy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Jadvalda resurslardan tejamkor foydalanish tamoyili ham alohida ahamiyat kasb etishi ko'rsatib o'tilgan. Xarajatlarni optimallashtirish, resurs yo'qotishlarini kamaytirish va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Innovatsionlik va raqamli boshqaruv elementlari esa zamonaviy resurslar ta'minoti tizimining strategik yo'nalishlari hisoblanadi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, raqamli platformalar va monitoring mexanizmlaridan foydalanish resurslar harakatining shaffofligini ta'minlash, tezkor tahlil olib borish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, nazorat va monitoring tizimlarining rivojlanganligi resurslardan foydalanish natijadorligini baholash, iqtisodiy xavflarni oldindan aniqlash hamda strategik rejalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa resurslar ta'minoti tizimining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.



1-rasmda resurslar ta'minoti tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bosqichma-bosqich yoritilgan. Model resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashdan boshlanib, resurs manbalarini shakllantirish, ta'minot va logistika jarayonlarini tashkil etish, resurslarni taqsimlash, monitoring va baholash orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish jarayonini ifodalaydi.

Rasmda resurslar ta'minoti tizimi faqat resurslarni topish va yetkazib berish bilan cheklanmasligi, balki ularni rejalashtirish, jalb qilish, taqsimlash, nazorat qilish va samarali foydalanishni o'z ichiga oluvchi kompleks boshqaruv jarayoni ekanligi ko'rsatilgan.

Modelning muhim jihati shundaki, unda moddiy, mehnat, moliyaviy, intellektual, raqamli va logistika resurslari yagona tizimda aks ettirilgan. Bu esa iqtisodiy faoliyatda resurslarning o'zaro bog'liq holda harakatlanishini va ularning har biri umumiy samaradorlikka bevosita ta'sir qilishini anglatadi.

Ta'minot va logistika jarayonlari resurslar oqimini uzluksiz tashkil etishning asosiy bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, yetkazib beruvchilarni tanlash, transport-logistika tizimini yo'lga qo'yish va ta'minot zanjirini muvofiqlashtirish xarajatlarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonlaridagi uzilishlarning oldini olishga xizmat qiladi.



1-rasm. Resurslar ta'minoti tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi



Monitoring, nazorat va samaradorlikni baholash bosqichi resurslardan foydalanish natijadorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. KPI ko'rsatkichlari asosida baholash, tahliliy hisobotlar tayyorlash va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish tizim samaradorligini oshiradi.

Mazkur rasm resurslar ta'minoti tizimining samarali tashkil etilishi iqtisodiy o'sish, mehnat unumdorligi, xarajatlarning kamayishi, raqobatbardoshlikning kuchayishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari resurslar ta'minoti tizimi iqtisodiyot tarmoqlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda moddiy, mehnat, moliyaviy, intellektual, raqamli va logistika resurslaridan oqilona foydalanish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar natijasida resurslar ta'minoti tizimi ko'p tarkibli va o'zaro bog'liq jarayonlardan iborat murakkab iqtisodiy tizim ekanligi aniqlandi. Mazkur tizimning samaradorligi resurslarga bo'lgan ehtiyojni to'g'ri aniqlash, resurs manbalarini shakllantirish, logistika jarayonlarini muvofiqlashtirish hamda monitoring va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, tadqiqot davomida resurslar ta'minoti tizimida raqamli texnologiyalar va innovatsion boshqaruv mexanizmlarining roli ortib borayotganligi asoslandi. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, raqamli platformalar va logistika infratuzilmasining rivojlanishi resurslar harakati tezligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida resurslar ta'minoti tizimini takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilandi:

resurslardan foydalanishda integratsiyalashgan boshqaruv tizimini rivojlantirish;

- logistika va ta'minot zanjiri infratuzilmasini modernizatsiya qilish;
- resurs tejankor texnologiyalarni keng joriy etish;
- inson kapitali va intellektual resurslar salohiyatini oshirish;
- raqamli monitoring va nazorat tizimlarini rivojlantirish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida resurslar boshqaruvi samaradorligini kuchaytirish.

Umuman olganda, resurslar ta'minoti tizimining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlarini takomillashtirish iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash, xarajatlarni optimallashtirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Marshall A. Principles of Economics. – London: Macmillan, 1890.
2. Samuelson P.A., Nordhaus W.D. Economics. – New York: McGraw-Hill, 2010.
3. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985.
4. Barney J.B. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage // Journal of Management. – 1991. – Vol. 17. – No. 1. – P. 99–120.
5. Christopher M. Logistics and Supply Chain Management. – London: Pearson, 2016.
6. Ballou R.H. Business Logistics/Supply Chain Management. – New Jersey: Pearson, 2004.
7. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
8. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2019.
9. Pardayev M.Q., Muxammedov M.M. Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
10. Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-son Farmoni. – 2023-yil 11-sentabr.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. – Toshkent, 2024.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 5 (3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>